

## Xo'rozcha va bo'yoqlar



Bugun biz ertaknamo **Xo'rozcha** rasmini chizamiz. U tanikli bolalar yozuvchisi va rassomi **Vladimir Suteyev** tomonidan o'ylab topilgan quvnoq va yaxshiliklarga boy hikoya qahramonidir. Uning ertagida Xo'rozcha avvaliga Vova ismli bola chizgan oddiygina oq-qora rasm bo'ladi. So'ng u jonlanadi va haqiqiy – rang-barang hamda chiroyli bo'lish uchun sayohatga o'tlanadi.

Yo'lda Xo'rozcha o'rmonlar, tog'lar va hayvonlarga duch keladi, nihoyat, Bo'yoqlar yashaydigan sehirli saroyni izlab topadi. Har bir bo'yoq unga o'z rangini hadya etadi: **Qizil** – uning tojini, **Ko'k** – dumini, **Yashil** – qanotlarini, **Sariq** esa ko'kragini o'z ranglari bilan bo'yaydi. Shunday qilib, Xo'rozcha o'zi xohlagan go'zallikka erishib, murod-maqsadiga yetadi.




Chiziqlar va ranglar yordamida, shuningdek, tasavvuringizni ishga solib, **Xo'rozchaning** rasmini chizing. **Bo'yoqlar** bilan uchrashgandan keyin u qanday ko'rinishga ega bo'lgan bo'lsa, uni shunday holatda tasvirlang.


**Rasm chizish bosqichlari:**

1. Varaqning pastki qismida **ufq chizig'ini** o'tkazing.
2. Oval shaklida **tanasini chizing**. Unga bosh, tumshuq, ko'z va tojni qo'shing.
3. Panjalarini tirnoqlari bilan birga **chizing**.
4. **Dumi** – hurpaygan, **qanotlari** esa tanasining ikki yonida oval shaklida bo'lsin.
5. Ranglar: toj va sirg'alari – **qizil**, dumi – **ko'k**, qanotlari – **yashil**, ko'kragi – **sariq** bo'lsin.
6. **Fon** bering va kompozitsiyani (maysa, gullar bilan) bezating.


1



2



3



4

